

**BUGUNGI KUNDA CHET TILINI O'QITISHDA  
INTERFAOLUSULLARNING AHAMIYATI  
(INGLIZ TILI MISOLIDA)**

***Rasulova Gulmira Vakiljon qizi***

*Qo'qon shaxar 25-maktab Ingliz tili va adabiyoti fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda chet tilini o'qitishda interfaolusullarning ahamiyati (ingliz tili misolida) hamda chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamyati xususida so'z yuritilar ekan, unda o'quvchilarni ta'lif jarayonida yangi metodlarni qo'llash orqali til o'rganuvchining faolligini, qiziqishini oshirish va shu bilan bir qatorda dars samaradorligini yanada takommilashtirish haqida malumot berib o'tildi. chet til o'qitish metodikasi va kreativ yondashuv haqida fikr yuritiladi, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy krativ metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Chet tilini o'qitish metodlari, yangi metod, yangilik, o'qitish usullari, gapirish ko'nikmasi, yangilik, metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya.

**Kirish.** Hozirgi kunda jahonda tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xusan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'lifning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lif muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016 yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikati olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan<sup>1</sup>.

Hozirgi davr ta'lif taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)”<sup>2</sup> ma'nolarini

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor. 2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4327>

<sup>2</sup> Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).

anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'naliishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"-bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahan ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili" deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarinining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalararning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlarimiz xorijiy va mahalliy adabiyotlaridan tashkil topgan bo'lib, asosan maqolamiz mavzusi asosida yig'ilgan. Biz chet tilni xoh mакtabda, xoh mustaqil o'zimiz audio, video yoki turli internet saytlaridan o'rgansakda maqsad bir narsaga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganayotgan tilimizda gapirishga fikrlashga va yangi o'rgangan tilimizda ma'lumotlar almashinishga bo'lgan ehtiyojni qondirish. Shu o'rinda gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda AQSHning Janubiy Kaliforniya universiteti professori chet tillarni o'qitish bo'yicha nazariyachi olim Stefan Krashenning qator gipotezalarni keltirib o'tish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan pedagogik tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, pedagogika fanida, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'l mish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinci til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rinn olgan. Uchala tilni

o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarmi ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati<sup>3</sup>. Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi.

Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika-nimani o'rgatamiz? o'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o'rgatamiz? ta'lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha "metodos-“metodus” so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi<sup>4</sup>. Mashg'ulotlarni rejalshtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. "Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqlash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab "didaktika" va "metodika" tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har

<sup>3</sup> Жалолов Ж. Чет тилини ўқитиши методикаси – Тошкент: 1996

<sup>4</sup> Мухаммаджон Ходжаев, Мавлуда Каҳхорова. Чет тили ўқитиши методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 148 бет

qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarini hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarining eng qimmatlilari ham tilshunoslar tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yesperson, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida eng ko'zga ko'ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, ko'zga ko'ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi. Rossiyada til o'qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustozи buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug'ullanganlar.

Chet til o'qitish metodi – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma`nosida ishlatsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli- qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

**Tahlillar va natijalar.** Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta`limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari 6 qismdan iborat.

Stefan Krashenga mulohazalariga ko'ra, dastavval o'rganuvchida tilni o'rganishiga ehtiyoj bo'lishi kerak yoki muhit taqozosi, bunday sharoitda til o'rganuvchi majburiyat yuzasidan tabiiy yo'l bilan axborot almashinuviga bo'lgan shaxsiy ehtiyoji tilda gapirishga undaydi. Bunda til o'rganuvchi yosh bola o'z ona tilini qanday o'rgansa, xuddi shu yo'l bilan tilni o'rganadi va chet tilida gapirishga harakat qildi, ya'ni ota-onasi yaqinlari bilan axborot almashinishga bo'lgan ehtiyoj uni gapirishga undaydi. Tilni bu shaklda o'rganish orqali gapirish ko'nikmasi yaxshi tabiiy rivojlanadi. Ammo tilni bu usulda o'rganganlarga nisbatan yozma nutq ko'nikmasini gapirish ko'nikmasi kabi yaxshi rivojlanmaganligini kuzatish mumkin. Og'zaki nutq konikmasini rivojlanishi haqida Krashen nazariyasiga ko'ra, navbatdagi kontroler – nazoratchi gipotezasida olim til o'rganuvchi tilni faqat qonun qoidalar asosida

o‘rganish haqida mulohazasida o‘rganilayotgan chet tilida gapi rayotganda o‘rganuvchining ongi ifodalanayotgan fikrni grammatik, fonetik o‘rganilgan qoidalar asosida tuzilayotganligini nazorat qiladi, ba’zi o‘rganuvchilarga miyaning bunday boshqaruvi chet tilida gapirishga uyalish ikkilanish hissini beradi. Olimning fikricha, ong nazoratini chegaralash, ya’ni xato qilishdan qo‘rmaslik chet tilida gapirish ko‘nikmasini yaxshiroq rivojla-nishiga olib keladi. Qisqa qilib aytganda, ongning tilga ko‘chayotgan fikri ustidan nazoratini chegaralash, tilga ko‘chgan fikr miyada tahlil qilinganda xato kamchiliklar aniqlansa-da, fikrni ifodalashdan uyalmaslik lozim bo‘ladi va natijada vaqt o’tib brogan sari kamchiliklar o‘z-o‘zidan yaxshilanib boradi. Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘rganilayotgan tilning tabiiy oziga xosliklari va ona tili yoki ong ostida fikrlayotgan til bilan bir biriga yaqin aksincha

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, chet til o‘rganish ko‘p qirrali ta’limot bo’lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o‘rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o‘rgatish samarali natija beradi. Chet til o‘rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo’lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida keng qo’llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog’liq va bir-birini to’ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog’liq bo’lganligi sababli, chet til o‘rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

### **Foydalanilganabiyotlarro‘yxati (References)**

1. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
2. Жалолов Ж. Чет тилини ўқитиши методикаси – Тошкент: 1996.
3. Муҳаммаджон Ходжаев, Мавлуда Қаххорова. Чет тили ўқитиши методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 148 бет
4. Вайсбруд М. Методы обучения. Выбор за вами. 2000, № 2
5. Rahmonova Sanoat Shuhrat kizi. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 366–375. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5154>.
6. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE.

MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 394–399.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10969679>

7. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(10), 850-854.
8. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
9. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLI AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.
10. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. Modern Science and Research, 3(2), 394-399.
11. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. SPAST Reports, 1(7).